



O'ZBEKISTONNING YEVROPA DAVLATLARI BILAN TARIXIY- MADANIY TURIZIMNING RIVOJLANTIRILISHIGA OID HAMKORLIGI VA UNING ISTIQBOLLARI

Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna

orcid: 0009-0008-2633-4603

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, 100149, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: (zeboismatullaeva705@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14862240>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston turizimi, o'zining boy madaniyati, tarixiy obidalari va tabiiy go'zalliklari bilan mashhurdir. O'zbekiston Respublikasining turizim salohiyati va jahonning rivojlangan davlatlari bilan turizim sohasidagi aloqalari dalillar asosida ko'rasatib bergan.

Kalit so'zlar: O'zbekturizm, jahon turizm, word travel market, Kappadokiya, Samarqand, Buxoro, Xiva, Ipak yo'li, Rim, Italiya, Kofirqala, Qo'ytepa.

1 Kirish.

O'zbekiston – sayyohlik uchun zarur barcha resurslarga, salohiyatga ega. Qadimiy me'moriy yodgorliklar, o'zbek madaniyati durdonalari, purviqor tog'lar, uch ming yillik insoniyat tamadduninga guvoh shaxarlar, betakror tabiatimiz – barchasi butun dunyodan minglab sayohlarni jalb qilmoqda.

O'zbekiston Buyuk Ipak Yo'li ustida joylashgan bo'lib, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Termiz, Shaxrisabz kabi shaharlar tarixiy obidalari bilan mashhur. Ularda ko'plab me'moriy yodgorliklar, tarixiy maqbaralar va masjidlar mavjud.

Shaharlardagi qadimiy madaniy meros, masalan, Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Ark qal'asi va boshqa joylar sayyohlar uchun qiziqish uyg'otadi. O'zbekistonning tabiati juda xilma-xil: Tojikiston bilan chegaradosh Fann tog'lari, ChimEn va Bo'stonliq kabi dam olish joylari, shuningdek, Orol dengizi va Qizilqum cho'llari sayyohlar uchun ekskursiyalarni taklif etadi. Tabiat qo'riqxonalarida piyoda ekskursiyalar, tog'larda yurish va boshqa chiqishlar uchun sharoitlar yaratilgan. O'zbekistonning turizm imkoniyatlari, davlat tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar va infratuzilma rivoji bilan yanada kengaymoqda. Sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar va mehmonxonalar sonining oshishi, bu sohaning rivojlanishiga yordam berishi kutilmoqda.

Ayniqsa, oxirgi besh -olti yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mehmonxona ho'jaligi, sayohlik infratuzilmasining barcha tarmoqlari izchil rivojlantirilib, yangi yo'nalishlar, zamonaviy mehmonxonalar qurildi, tarmoq infratuzilmasi yanada kengaytirildi. Bu o'z navbatida yurtimizga kelishni hohlagan sayyohlar sonini keskin ortishiga imkoniyat yaratdi.

2 Turizm sanoati soxasidagi statistik malumot.

O'zbekiston Respublikasining dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiyotning muxim yo'nalishi bo'lgan Turizm sanoati soxasidagi hamkorligi ham rivojlanmoqda. Davlat Bojxona statistika qo'mitasi malumotiga ko'ra 1997 yil davomida O'zbekistonga 963,5 ming, 1998 yil,-710,5 ming, 1999 yil,- 486,8 ming turist tashrif buyurgan[1].

Soha ekspertlari fikricha 2018 yili O'zbekistonga kelgan turistlar soni 5,3 mln. kishini tashkil etib, shulardan 5 mln. MDH davlatlari, 325 mingtasi esa uzoq horij mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Demak, ushbu sohada amalga oshirilgan ishlohotlar o'zining ijobiy samarsini berib, qisqa o'n besh yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar soni deyarli o'n barobarga oshganligida ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonning rivojlantirishning 2030 yilgacha bo'lgan strategiyasida xorijiy sayyohlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini esa 25 millionga yetkazish maqsadi qo'yilgan. Samarqand shahri esa Markaziy Osiyoning turizm xabiga aylantirish rejasi ham to'liq amalga oshirilmoqda. Buni 2023 yil holatiga Samarqandni ko'rish uchun kelgan turistlar oqimini 2millionga yaqqinlashganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Ammo turistik imkoniyati juda yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun bu yetarli emas, hukumatimiz tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida, alohida strategiya va dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq yaqin kelajakda turistlar sonining o'n millionga yetkazish ko'zda tutilgan.

3 O'zbekistonning turistik imkoniyati.

O'zbekiston o'zining turistik imkoniyati bo'yicha Markaziy Osiyoda 1- o'rinni, dunyo mamlakatlari ichida 10-15 davlatlar qatoriga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Buyuk Britaniyada o'tkaziladigan "jahon turizm yarmarkasida", "word travel market" bir necha bor, Germaniyaning Frankfurt shahridagi o'tkazilgan turizm yarmarkalarida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi, ko'plab firma, mexmonxona vakillari ishtirok etgan. 1994 yil O'zbekistonda xalqaro "Ipak yo'li – muloqat yo'li" seminar o'tkazilib, unda 20 ga yaqin



mamlakat vakillari ishtirok etdi[2]. Albatta, iqtisodiyotning muhim yo'nalishi bo'lgan Turizm sohasini rivojlantirishda Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, erishgan tajribalaridan foydalanish mamlakatimizni dunyoni rivojlangan mamlakatlari qatorida munosib o'rin egallashida muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa Yevropa mamlakatlari ichida turizm sohasida juda katta imkoniyat va salohiyatga ega Italiya Respublikasi bilan ushbu yo'nalishda hamkorlik yo'lga qo'yish, mamlakatimiz turizmini rivojlantirishga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

Ko'hna Italiya ya'ni Rim ham insoniyat sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida dunyoga mashhur. Rim qadimgi davrlardayoq o'zining betakror memorchiligi, klassik adabiyoti, san'ati bilan qo'shni va uzoq davlatlarga madaniy tasir etgan. Hozirgi Yevropa aynan shu Rim sivilizatsiyasi fundamenti ustiga qurilgan. Shundan kelib chiqib ayta olamizki, Italiya o'zining qadimiy arxitektura va shaharsozlik madaniyatlarini hozirgi kungacha saqlab, butun insoniyatga taqdim etib, hamon madaniy aloqalar rivojiga hissa qo'shib kelmoqda. Albatta bu turizmni rivojlanishiga imkon yaratib, ushbu yo'nalish Italiya iqtisodiyotida munosib ulushga egadir.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy go'zal shahri Samarqand ham – Sharq Rimi nomini olgani ham ramziy ma'noga ega. Chunki ikki yirik shahar qadimiylikda va jahon tamadduniga qo'shgan hissasi borasida bimalol bellasha oladi. Ba'zi o'rinlarda bir – birini to'ldiradi. Qadim Maroqand ya'ni Samarqand va Rim shaharlari o'rtasidagi aloqalar antik davrdanoq, Buyuk ipak yo'li bo'ylab karvonlar qatnagan davrlarga borib taqalishini tarixiy manbalar tasdiqlamoqda[3]. Demak, hozirda Jahon iqtisodiyotini muhim tarmog'i hisoblangan turizm sohasida hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirish ikki davlat uchun ham birday manfaatlidir. Olimlarning hisob kitoblariga ko'ra ko'hna Samarqand va Rim shaharlari dunyo turistlar tomonidan eng ko'p ziyorat va tomosha qilinadigan yirik ellikta shaharlar safiga kirgan. Shuni o'zi ham ushbu yo'nalishda hamkorlik qilish istiqolli ekanligiga shubha qoldirmaydi. So'ngi yillarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham aynan turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, ko'plab faromon va qarorlarni qabul qildi. Alohida yangi qonun yaratilib ushbu sohani rivojlantirishga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston va Italiya o'rtasida turizmni turli sohalari bo'yicha ham so'nggi yillarda aloqalar olib borilmoqda. Buning aksini 2018-yil yozida Italiyaning Bolonya universitetida "Arxeologiya va turizm - O'zbekiston va Italiya hamkorligi" mavzusida tashkil etilgan ilmiy seminar misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu ilmiy – amaliy seminarda O'zbek – Italyan olimlari tomonidan Samarqand viloyatida hamkorlikda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari namoyish etilib, unda Kofirqala, Qo'ytepa va Zarafshon vohasida amalga oshirilgan amaliy ishlar haqida ma'lumotlar berildi. Yangi yo'nalishlarda tarixiy turizmni rivojlantirishga oid takliflar bildirilib, aynan shu marshutlar bo'yicha turizmni rivojlantirish lozimligi ham ta'kidlandi.

Shu bilan birga ushbu seminarining yana bir muhim jihati bevosita arxeologik izlanishlarda ishtirok etgan Italiyalik olimlar, jumladan Bolonya universiteti professori M.Tozi, Neapol universiteti sharqshunos olimi professor B.Jenitolar ishtirok etib, O'zbekistonda olib borilgan izlanishlar va ularning ilmiy ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirib o'tdilar. Demak, ushbu yo'nalishdagi aloqalar ilmiy tadqiqot bilan parallel ravishda amalga oshirilayotganligi bu juda ijobiy holatdir.

Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulayliklar, soliq imtiyozlari, sog'lom raqobat va ishbilarmonlik muhiti muhim omil bo'layotir. O'lkamizga kelayotgan sayyohlar orasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatadiki, sayyohlarda Buxoro (35 %), Samarqand (22%), Xiva (20 %), Nukus va Termiz (9 %), Toshkent (4 %) va boshqalari (10 %) qiziqish uyg'otgan. Jahon sayyohlik bozorida O'zbekistonning nufuzi oshib bormoqda. Buning misoli sifatida 2008- yilning 15-22 aprel kunlari Turkiyaning Kappadokiya shahrida Xalqaro sayyohlik festivalida ishtirok etganligida ko'rish mumkin. Unda yigirmaga yaqin mamlakatdan, jumladan, O'zbekistondan, yuzga yaqin sayyohlik firma va kompaniyalari vakillari ishtirok etdi[3].

Kappadokiya o'tgan Xalqaro sayyohlik festivali mamlakatimizning sayyohlik borasidagi ulkan salohiyatini namoyish etish, jahon jamoatchiligini yurtimiz sayyohlik sanoati imkoniyatlari bilan keng tanishtirish hamda xorijiy sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikning mustahkamlash imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Ko'p asrlik tarix, betakror madaniyat va an'analarga ega O'zbekistonning jahon sayyohlik bozoridagi nufuzi tobora oshib borayotganligini, Turkiyaning Madaniyat va sayyohlik vazirligi vakili Ibrohim Yazar ham e'tirof etdi.

2019-yil mart oyida Germaniya poytaxti Berlin shahrida o'tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasida O'zbekiston turizm qo'mitasi va yurtimizda faoliyat olib borayotgan bir nechta turistik firmalari ishtirok etdi. Ushbu yarmarkada ishtirok etgan O'zbekiston turistik firmalari ko'plab Yevropa davlatlari jumladan,



Italiyani bir qator turistik firmalari bilan shartnomala tuzib, ushbu yo'nalishdagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishga kelishib oldilar.

4 Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirda turistlar oqimi oldingi yillarga nisbatan bir necha marotabaga ortganligini statistik ma'lumotlar tasdiqlamoqda. Albatta bunga O'zbekiston hukumati tomonidan xorijiy davlatlar fuqorolariga vizasiz tartiblarni joriy etilishi ham ijobiy ta'sir qilmoqda. Dunyo mamlakatlari ichida Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Misr, Indoneziya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya sayyohlik tufayli milliardlab foyda ko'rayapti. Demak, yurtimizda ham shu sohani rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish orqali ularning darajasiga olib chiqish, zamon talablari darajasida xizmat ko'rsatish tizimini joriy qilish zarur. Zero, bu sohadagi islohotlar minglab ish o'rinlarini yaratish barobarida, mamlakat dovrug'ini yoyish uchun ulkan imkoniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гулметов Ф.Е. Аллабергенов А.А. Туризм географияси. Т.; Талқин. 2004. – б.3.
2. Гулметов Ф.Е. Аллабергенов А.А. Туризм географияси. Т.; Талқин. 2004. – б.3.
3. ТSГА. РУз., ф.М-2., д.172, л.13.
4. Ўзбекистоннинг жахон сайёхлик бозоридаги нуфузи тобора ошмоқда. // Халқ сўзи. 2018 йил 24 апрель